

**“HAYOT YUTQAZGAN JOYINGDAN BOSHLANAR”-MIRACH CHAG’RI
OQTOSH ASARI**

Raximova Nozima G’ayrat qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
“Boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Maqolada hayotga qaytish, sabrli, kechirimli, baxtli bo’lish hamda, o’tmish haqida emas, balki, kelajak tomon qadam bosishimiz kerakligi haqida so’z boradi.

Tayanch so’zlar: Baxtli bo’lish, yo’qotish, kechirimli bo’lish, befarqlik, sinovlar, dard, afsuslanish, sabr.

Аннотация

В статье говорится о возвращении к жизни, терпении, прощении, счастье, и не о прошлом, а о необходимости сделать шаг навстречу будущему.

Ключевые слова: Счастье, потеря, прощение, равнодушие, испытания, боль, сожаление, терпение.

Annatation

The article talks about returning to life, being patient, forgiving, happy, and not about the past, but about the need to take a step towards the future.

Key words: Happiness, loss, forgiveness, indifference, trials, pain, regret, patience.

Hayot haqida so’z borar ekan, bu hayot bizga - go’zal dunyoni ko’rishga, undan bahra olishga, unda yaxshilik qilib yashashga, yomonlardan yiroqda, yaxshilar tomonda bo’lishga undaydi. Afsuski, biz bu sanalganlar ichidan qay biriga rioya qilyapmiz? Hech biriga. Aytingchi, hayotning shunday ajoyib ne’matlaridan foydalanish o’rniga biz nima qilyapmiz? Biz faqat o’tmish bilan yashab kelyapmiz. Bugungi kunni esdan chiqarib qo’ymoqdamiz. O’tmishda bo’lgan arazlarni, aytishuvlarni unutishga urinmayapmiz hatto. Chunki, bunga g’urur yo’l qo’ymaydi, shundaymi? Albatta, ha. O’tmishda nima bo’lgan bo’lgan bo’lsa bo’ldi, ketgan ketdi, qolgan qoldi. Endi uni ortga qaytarishni umuman ilojisi yo’q, buni foydasi ham yo’q bunday o’ylab qaraganda. Mirach Chag’ri Oqtosh - “Hayot yutqazgan joyingdan boshlanar”, - deya kitobga bejiz nom bermagan. Bu kitobni bir marta varaqlab chiqing, hayotingiz aqlbovar darajada o’zgarganini bilmay qolasiz. Bu kitobni juda ixlos bilan qo’limga oldim va o’zimga dedim: ”Ushbu kitobni o’qir ekanman, shu kundan boshlab hayotimni batamom boshqa tarafga o’zgartiraman”. Natija shuni ko’rsatdiki, o’zimni hayotimdagi kamchiliklarimni to’g’irladim. Bu kitob shu haqida:

Mirach Chag'ri Oqtosh bu kitobi bilan nima demoqchi:

Hayotda har qanday vaziyatlar bo'ladi. Oyning yarmi yorug', yarmi qorong'u deganlari kabi hayot ham shunaqa tus oladi. Goh paytda yiqilasan, goh paytda omading kelib katta inson bo'lasan. O'sha yiqilgan paytingda yoningda hech kim qolmasligi, hech kim senga yordam qo'lini tutmasligi mumkin. Senga qilganlarni unutmassan, azoblanarsan ammo bu hali holva. Bunga tez ko'nikib ketasan. Shunga majbursan!

Bu hayotda undanda yomoni yaqinlaringni senga qilgan xiyonati. Kutmagan insonlaringdan kutmagan vaqtda zarba keladi. Shunday vaqti keladiki, xaqiqiy do'stim deganing ham, yomon kuningda seni yolg'izlatib qo'yadi. Yoningda bittasini ham topa olmaysan. Nima ham derdik yo'limizda davom etamiz.

Keling sizga bitta voqeani aytib beraman:

Meni yoshlikda katta bo'lgan o'rtog'im bo'lardi, u bilan juda yaqin edik, hatto maktabga birga borib kelardik, shunaqa yaqin edikki, oramizda umuman sir bo'lmasdi. Katta bo'ldik, ulg'aydik, oliygohga ham qadam bosdik. Bir kun shunaqa noxush bitta xabar keldiki o'z qulog'imga ishonmay qoldim. Na yig'lashimni bilaman, na kulimni, chunki o'sha sirdosh dugonam mani orqamdan bo'lar bo'lmas gaplarni gapirib yurganini bilib qoldim. Qarang, shu voqea hali ham esimda ekan. O'zi odamzot shunaqa jonzotki, bitta eng yaxshi kunni, bitta eng yomon kunni esida qoldirarkan. Men ham shular qatoriga kiraman. Nima bo'lganda ham men uni kechirdim.

Shunday paytlar keladiki, hayotdan to'yib, hech kimga ishonchi qolmagan bir paytda yolg'iz qolgisi keladi. Ayni shu paytda, yolg'izlik bizga yordamga keladi. Yolg'iz qolib sal bo'lsa ham o'zimizga kelamiz. Bu yolg'izlikka nima sabab bo'ladi deb o'ylisiz? Hozir sizga hammasini aytaman. O'z yaqinlaring seni tushunmasligi, o'zingni ularni yonida ortiqcha his qilishing, senga qilayotgan soxtaliklari sabab bo'ladi. Bularga qachongacha chidash mumkin deya aytishingiz mumkin? Bunga bitta chora bor ularga huddi o'zlari kabi muomalada bo'lish. Mirach Chag'rini bitta gapi bor: "Ranjima, Alloh seni bir kun shunday rozi qiladiki, oldin xafa bo'lganlaringni eslolmay qolasan". Bu bilan nima demoqchi? Alloh sen uchun bir eshikni yoptimi, senga yana ham yaxshisini tayyorlab qo'ygan.

Bu dunyoda xato qilmaydigan odam bo'lmasa kerak manimcha. Odamzot borki, xato qiladi. Xato qilmaydigan odamni o'zi yo'q. Senga berilayotgan bu xatolar keying safar yana shunga duch kelsang, bu safar to'g'ri yo'lni tanlashing uchun bir o'rnak holos. Bu xatolaring senga bitta tajriba bo'ladi. Xatolarni yengib o'tib maqsadingga yetasan. Shuni unutmashimiz kerakki, hayot yutqazgan joyingdan boshlanar.

Nahl surasining 96-oyati insonga tassalli beradi:

"Sabr qilganlarga savoblarini qilgan ishlaridan-da ziyoda qilib beramiz"

Senga zarar bergan, yolg'on so'zlagan insonlar sendan ustun deya o'ylama.

Sen bularning hammasiga sabr qil. Sabrning mevasi shirin bo'ladi. Sen esa sabr qilishda davom et.

“Endi oldingidek yolg’iz boshingga boshqalar uchun kurashmayman. Bundan keyin yagona qadrli odam o’zimman” – agarda siz ushbu rioyaga amal qilsangiz, sizni hayotingiz umuman boshqa tarafga o’zgarib ketishiga ishonaman. Qachongacha birovlar uchun qayg’urib yurishing kerak? Seni ham yo’qotishdan qo’rqadigan odam bormikan? O’z darding kamlik qilganday boshqlarni o’ylashing bu ortiqcha.

Mircha Chag’ti Oqtosh bu motivatsion kitobi bilan nima demoqchi: agarda siz o’zingizga ishonmasangiz boshqalardan sizga ishonishlarini kutmang! O’zingizni hurmat qilmasangiz, o’zgalardan hurmat kutmang! O’zgalarning sizga yordam qilishlarini kutmang, o’zingiz uchun harakat qiling. Ketganlar ortidan siqilmang!

Hayot yutqazgan joyingdan boshlanar!!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kitoblardunyosi.uz/hayot-yutqazgan-joyingdan-boshlanar>
2. <https://quronvasunnat.uz/quron?sura=16>